| | oshiriladi. Obligatsiyalar jamiyatga xizmat ko'rsatuvchi investitsiya vositachisidagi depo hisob raqamiga ko'chiriladi.<br>Obligatsiyalarning muomala muddati – obligatsiyalar joylashtirilishi boshlangan sanadan boshlab 365 (uch yuz oltmish besh) kun. Mazkur muddat yakuni bo'yicha obligatsiyalar uchun to'lov sifatida olingan pul mablag'larni, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan diskont ko'rinishidagi daromadlarni to'lash amalga oshiriladi. |
| **Obligatsiyalar muomalasining boshlanish sanasi** | Ushbu obligatsiyalar joylashtirilishi boshlangan kun hisoblanadi. |
| **Obligatsiyalar muomalasining tugash sanasi** | Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar muomalasi boshlangan kundan boshlab 366 (uch yuz oltmish olti) kunga o'tgan kun. |
| **Obligatsiyalar muomalasi tartibi** | Obligatsiyalarning muomalasi oldi-sotdi bitimlari, shuningdek amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, obligatsiyalarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar orqali amalga oshiriladi.<br>Obligatsiyalar qimmatli qog'ozlarning uyushgan birja va uyushmagan birjadan tashqari savdolari orqali muomalada bo'lishi mumkin.<br>Qimmatli qog'ozlarning uyushgan birja savdolarida obligatsiyalar bo'yicha oldi-sotdi bitimlari qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining qoidalariga asosan, mazkur qimmatli qog'ozlarga mavjud bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda, amalga oshiriladi.<br>Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan birjadan tashqari savdolarida obligatsiyalar bo'yicha tuziladigan bitimlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.<br>Obligatsiyalarga bo'lgan huquqlar oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda investitsiya vositachisi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi. |
| **d) Obligatsiyalarni so'ndirish tartibi va shartlari** | |
| **Obligatsiyalarni so'ndirish sanasi** | Obligatsiyalarni so'ndirish sanasi, joylashtirishni boshlanish sanasidan boshlab 366 (uch yuz oltmish olti) kunga o'tgan kun hisoblanadi.<br>Mazkur korporativ obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga asosan obligatsiya egalari, o'zlariga tegishli obligatsiyalarni to'liq so'ndirish sanasigacha egalik qilish huquqiga ega. |
| **Obligatsiyalarni so'ndirish usuli** | Obligatsiyalarni so'ndirish qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan obligatsiyalar egalarining reestridagi ma'lumotlariga asosan obligatsiyalar egalarining bank rekvizitlariga pul mablag'larini (obligatsiyani joylashtirilgan qiymati va diskont ko'rinishidagi daromadlarini) o'tkazish yo'li bilan obligatsiyalar muomalasi boshlangan kundan boshlab 365 (uch yuz oltmish besh) kun holatiga 10 (o'n) kun ichida amalga oshiriladi.<br>Agar to'lov summasini amalga oshirishdagi sanada bank hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha dam olish kuniga |

| | |
|---|---|
| | to'g'ri keladigan bo'lsa, to'lov summasini to'lash shu kundan keyingi birinchi ish kunida amalga oshiriladi.<br>Agar daromadni to'lash reestrida obligatsiyalar egasining bank rekvizitlari to'g'risida to'liq bo'lmagan va/yoki noto'g'ri ma'lumotlar bo'lsa, bank obligatsiyalar egalariga to'lanadigan mablag'larning kechiktirilganligi uchun javobgar bo'lmaydi.<br>Bunday vaziyatga yo'l qo'ymaslik uchun obligatsiya egalari obligatsiyalarning muomala muddati tugashidan oldin bankga, o'z bank rekvizitlarini ko'rsatgan holda murojaat qilishga haqli. Shuningdek, bank Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan reestrni o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.<br>Agar obligatsiya egalarining reestrida obligatsiyalar egalarining bank rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasa yoki ushbu ma'lumotlar o'z ahamiyatini yo'qotgan taqdirda, obligatsiya egasiga tegishli mablag'lar bank tomonidan saqlanadi va bu pul mablag'larga saqlangan muddatlar uchun qo'shimcha to'lovlar amalga oshirilmaydi.<br>Pul mablag'larini so'ndirish uchun to'lovlar amalga oshirilgan kunlar uchun obligatsiyalar egalariga foizlar hisoblanmaydi. |
| **e) Obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish imkoniyati va shartlari** | Bank obligatsiyalarini muddatidan oldin so'ndirish, obligatsiyalar joylashtirilgan sanadan boshlab 365 (uch yuz oltmish besh) kundan ilgari so'ndirishni amalga oshirish mumkin emas, bunda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi, obligatsiyalarni joylashtirish muddatlarida joylashtirilmasligi, bank o'z kapitali miqdori kamaytirilganda va/yoki bank qayta tashkil etilgan va tugatilish hollari bundan mustasno.<br>Bank qonunchilikda va mazkur bandning birinchi xat boshisida ko'zda tutilgan holatlari yuzaga kelganda obligatsiyalarni muddatidan oldin qaytarib sotib olish to'g'risida Kuzatuv kengashi tomonidan tegishli qaror qabul qiladi.<br>Bank mazkur obligatsiya egalarining obligatsiyalarini muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida vaziyatlar yuzaga kelganda, muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga ushbu obligatsiyalarni harakatsizlantirish hamda obligatsiyalarni harakatsizlantirish sanasiga obligatsiya egalari reestrini tuzish bo'yicha topshiriqnoma beradi.<br>Bank obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish to'g'risida obligatsiya egalarini 10 (o'n) kun oldin yozma shaklda obligatsiya egalarining reestrida aks ettirilgan ma'lumotlari (manzillari) bo'yicha xabardor qiladi.<br>Bu holatda bank obligatsiya egalariga obligatsiyaning dastlabki joylashtirish qiymati hamda ushbu obligatsiya bo'yicha hisoblangan diskont ko'rinishdagi daromadlarini bank Kuzatuv kengashi qaror qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariydan olingan obligatsiya egalari reestrida ko'rsatilgan bank rekvizitiga o'tkazib berish majburiyatini |

| | |
|---|---|
| | o'z zimmasiga oladi.<br>Bank obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha bankning Kuzatuv kengashi qarori qabul qilingan kunidan boshlab, mazkur obligatsiyalarga to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun qo'shimcha to'lovlar to'lanmaydi.<br>Bank obligatsiyalarni muddatidan oldin so'ndirish bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan shartlar yuzaga kelgan kundan 2 (ikki) ish kuni ichida O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) ushbu fakt to'g'risida rasmiy xabarni e'lon qilib, ma'lumotlarni obligatsiya egalariga yetkazadi.<br>Bank tomonidan ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni muomala muddati davomida birja va birjadan tashqari savdolarida qayta sotish maqsadida sotib olishi va boshqa investorlarga sotishi mumkin. |
| **j) Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, jamiyat tomonidan obligatsiyalar uchun to'lov sifatida olingan mablag'larni qaytarish tartibi** | Ushbu chiqarilgan obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bank amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu holat to'g'risida rasmiy xabar e'lon qiladi, shuningdek Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan sanaga obligatsiyalar egalari ro'yxatini so'raydi.<br>Mazkur chiqarilishdagi obligatsiyalar haqiqiy emas deb topilgan paytdan e'tiboran bank ushbu qaror asosida chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha diskont ko'rinishdagi daromadlar hisoblashni to'xtatadi.<br>Bank ushbu chiqarilishdagi barcha obligatsiya egalariga amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda obligatsiyalar uchun to'lov sifatida olingan pul mablag'larni, shuningdek to'lanishi lozim bo'lgan diskont ko'rinishdagi daromadlarni (obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan oraliq davrga), ushbu obligatsiyalar chiqarilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida qaytarib berish majburiyatini oladi.<br>Obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida "Biznes-Daily Media" Nashriyot uyi mas'uliyati cheklangan jamiyatga tegishli Biznes Daily "Birja" gazetasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) belgilangan tartibda e'lon qilinadi.<br>Bank tomonidan obligatsiya egalariga obligatsiyalarning chiqarilishi haqiqiy emas deb topilganidan so'ng, to'lovlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan kunlar uchun diskont ko'rinishdagi daromadlar to'lanmaydi. |

| | |
|---|---|
| **z) Ayirboshlanadigan obligatsiyalar to'g'risida ma'lumot** | Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar bo'yicha ayirboshlash amalga oshirilmaydi. |
| **i) Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo'yicha ta'minot** | Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar bankning o'z kapitali miqdori doirasida chiqarilayotganligi sababli ta'minot ko'zda tutilmagan. |
| **k) Garov sifatida taqdim etilgan mol-mulkni baholashda qatnashgan baholovchi tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar** | Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar bo'yicha ta'minot sifatida garovga mol-mulk taqdim etilmaydi, shuning uchun baholash tashkiloti jalb qilinmagan. |
| **l) Bank kafolatini taqdim etgan bank to'g'risidagi ma'lumotlar** | Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar bankning o'z mablag'i doirasida chiqarilayotganligi sababli bank kafolati taqdim etilmaydi. |
| **m) Obligatsiyalarning ushbu chiqarilishi bo'yicha jamiyatning majburiyatlarini sug'urtalagan sug'urta tashkiloti to'g'risida ma'lumotlar** | Ushbu chiqarilayotgan obligatsiyalar bank o'z mablag'i doirasida chiqarilayotganligi sababli sug'urta majburiyatlari taqdim etilmaydi. |
| **n) Obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan pullardan foydalanishning maqsadi** | Bank ustavi hamda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan pul mablag'laridan kredit olishga ehtiyoji mavjud bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlash maqsadida foydalaniladi. |
| **o) Obligatsiyalar egasiga beriladigan huquqlar** | Ushbu chiqarilishdagi har bir obligatsiya o'z egasiga teng huquqlarni beradi. Obligatsiya egasi quyidagi huquqlarga ega:<br>- belgilangan muddatda so'ndirilayotgan obligatsiyalar bo'yicha obligatsiyalarning joylashtirish qiymati va diskont ko'rinishidagi daromadlarini olish;<br>- obligatsiya egalari qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'z tavakkalchiliklarini sug'urta qildirish;<br>- depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;<br>- Chet el kapitali ishtirokidagi «Hamkorbank» aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) o'z kapitali miqdori kamaytirilganda va/yoki bank qayta tashkil etilgan taqdirda obligatsiyalar egasi, obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarning bekor qilinishini yoki muddatidan oldin bajarilishini hamda yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga;<br>- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq obligatsiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bank obligatsiya egalariga kiritilgan mablag'larni, shuningdek, to'lanishi lozim bo'lgan diskont ko'rinishidagi daromadlarni (haqiqiy muomala davri uchun) qaytarish majburiyatini oladi (obligatsiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan davrga);<br>- obligatsiya egasi o'z obligatsiyalarini erkin sotish va boshqacha tarzda begonalashtirish huquqiga ega;<br>- bankdan obligatsiyalar chiqarish shartlariga rioya qilishning iloji yo'qligi to'g'risida investorlarni darhol yozma ravishda xabardor qilishni talab qilish;<br>- bankning obligatsiya egalari oldidagi majburiyatlarini bajarishi va ushbu majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish; |

| | |
|---|---|
| | - mazkur qarorda belgilangan vazifalarni bajarish munosabati bilan davlat organlari va sudlarda o'z manfaatlarini himoya qilish;<br>- obligatsiya egasi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.<br>Bankning oʻz kapitali kamayishi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar, qonunchilikda belgilangan muddatlarda "Biznes-Daily Media" Nashriyot uyi mas'uliyati cheklangan jamiyatga tegishli Biznes Daily "Birja" gazetasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) oʻrnatilgan tartibda e'lon qilinadi. |
| **p) Investor tomonidan sotib olingan obligatsiyalar bo'yicha olingan daromadni soliqqa tortish to'g'risidagi ma'lumot** | Investor tomonidan sotib olingan obligatsiyalar bo'yicha olingan daromadlarni soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq Kodeksida belgilangan soliq stavkalariga muvofiq amalga oshiriladi.<br>Agar to'lov manbaida bank tomonidan diskont ko'rinishidagi daromadlardan daromad solig'ini ushlab qolish bo'yicha soliq qonunchiligi normasi mavjud bo'lsa va obligatsiya egasi daromad solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lsa (shu jumladan, daromad solig'idan ozod qilish), bunda obligatsiya egasi bu haqda bankga oldindan yozma ravishda xabardor qilishi shart.<br>Bunday ogohlantirish xati quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: imtiyoz qo'llanilgan me'yoriy hujjatning nomi (xatga ilova qilingan ushbu me'yoriy hujjat nusxasi bilan), obligatsiya egasiga bunday imtiyoz qo'llaniladigan asos va obligatsiya egasining bank rekvizitlari.<br>Ogohlantirish xati joriy davr tugashidan 5 (besh) kalendar kunidan kechiktirmay bankga topshirilishi kerak. Ushbu obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan va to'langan daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar obligatsiyalar muomala muddati tugaganidan keyin amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda e'lon qilinadi. |
| **r) Ro'y berishi oqibatida jamiyatning obligatsiyalari bo'yicha majburiyatlar bajarilmasligi ehtimoli bo'lgan hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar** | Bank obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarini quyidagi vaziyatlar yuzasidan bajara olmasligi mumkin:<br>➢ Bank aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyatni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganda;<br>➢ Bank faoliyatini majburiy (Markaziy Bank tomonidan litsenziya chaqirib olinganda) shaklda tugatish to'g'risidagi qaror qilinganda;<br>➢ Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlari talablari, shu jumladan litsenziya talablari va shartlari buzilganda;<br>➢ Bankni auditorlik tashkiloti tomonidan yil yakunlari bo'yicha to'lovga layyoqatsiz deb topilganda. |

| | |
|---|---|
| | Bank yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarini belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) e'lon qilinadi.<br>Bank obligatsiyalari bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik ehtimoli (bundan buyon matnda - defolt) yuzaga kelganda sodir bo'lishini oldindan ko'rish yoki oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar tushuniladi (tabiat hodisalari, harbiy harakatlar, vakolatli organlarning taqiqlovchi yoki cheklovchi harakterdagi harakatlari va boshqalar).<br>Yuqoridagi vaziyatlar yuzaga kelganda, bank majburiyatlarini bajara olmasligini oldini olish maqsadida bank tomonidan zaxira fondi tashkil qilingan bo'lib, unga muvofiq bank Ustavida "bankning zaxira fondi boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, bankning zararlari o'rnini qoplash, bankning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish uchun mo'ljallanadi" deb keltirilgan.<br>Bank obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni bajara olmasligi yoki lozim darajada bajara olmasligi yuzasidan qaror qabul qilish kuniga Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan obligatsiya egalari reestrini oladi. Bank mazkur reestrni olish bo'yicha Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga 5 (besh) bank ish kuni oldin obligatsiya egalari reestrini shakllantirish uchun belgilangan tartibda topshiriqnoma beradi.<br>Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan taqdim qilingan obligatsiya egalari reestriga muvofiq, bank obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni bajara olmasligi yoki lozim darajada bajara olmasligi yuzasidan bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi kun tartibida ko'rib chiqib (obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va ularga hisoblangan daromadlarni to'lash yuzasidan), qarorlar qabul qiladi.<br>Obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo'lgan taqdirda, obligatsiyalar bo'yicha obligatsiyani sotish bahosi va diskont ko'rinishdagi daromadni to'lash majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda obligatsiya egalarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha mumkin bo'lgan harakatlari quyidagilar:<br>➢ bankga bajarilmagan majburiyatlarini qonunchilikda belgilangan tartiblarda bajarilishi yuzasidan murojaat qilish;<br>➢ qimmatli qog'ozlar bozorida o'z huquqlari buzilganligi to'g'risidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilish;<br>➢ qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi va boshqa davlat organlariga ariza bilan murojaat qilish. |

| | |
|---|---|
| **s) Jamiyat obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgan taqdirda, obligatsiyalar egalari harakatlarining tavsifi** | Bank obligatsiyalar bo‘yicha daromadlarni qaytarish va to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi bo‘yicha bank Kuzatuv kengashi qarori qabul qilingan kundan 5 (besh) bank ish kuni ichida, obligatsiya egalarini Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan obligatsiya egalarining reestrida qayd etilgan ma’lumotlar asosida yozma shaklda xabardor qiladi hamda belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi veb-sayti e’lon qiladi.<br>Bank Kuzatuv kengashi yig‘ilishida, bank obligatsiyalar bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlar miqdori, majburiyatlarning bajarilmasligining sababi, shuningdek, obligatsiyalar egalarining o‘z talablarini qondirish bo‘yicha harakatlari tasnifi bayon qilinadi.<br>Bank obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgan taqdirda, obligatsiya egalari o‘z talablarini qondirishi mumkin bo‘lgan harakatlari quyidagilar:<br>➢ bankga bajarilmagan majburiyatlarini qonunchilikda belgilangan tartiblarda bajarilishi yuzasidan murojaat qilish;<br>➢ qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z huquqlari buzilganligi to’g’risidagi da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilish;<br>➢ qimmatli qog’ozlar bozorini tartibga solish bo’yicha vakolatli davlat organi va boshqa davlat organlariga ariza bilan murojaat qilish. |
| **t) jamiyatning to‘lov agenti to‘g‘risidagi ma’lumot (mavjud bo‘lgan taqdirda)** | Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bo’yicha majburiyatlarni naqd pulda to’lanishi ko’zda tutilmaganligi sababli to’lov agenti jalb etilmagan. |
| **3-bob. Emissiya to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma’lumotlar** | |
| **18. Ushbu qimmatli qog’ozlarni chiqarish to’g’risida qaror qabul qilgan jamiyat organi va qaror qabul qilingan sana** | Obligatsiyalarning ushbu chiqarilishi bo’yicha qaror bank Kuzatuv kengashining 2024-yil 01-martdagi 4-sonli yig‘ilish qarori qabul qilingan. |
| **19. Ushbu chiqarilish bo’yicha jamiyat tomonidan jalb qilingan qimmatli qog’ozlar bozorining professional ishtirokchilari haqida ma’lumot** | Bank tomonidan ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni joylashtirish bo’yicha xizmatlar, shu jumladan anderrayting xizmatlarini ko’rsatuvchi “HBCapital” mas’uliyati cheklangan jamiyati investitsiya vositachisini jalb qilgan holda amalga oshiriladi.<br>Anderrayter to’g’risidagi ma’lumotlar:<br>➢ to‘liq nomi: “HBCapital” mas’uliyati cheklangan jamiyati;<br>➢ qisqartirilgan nomi: “HBCapital” MCHJ;<br>➢ joylashgan joyi: 170119, O’zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 53-uy;<br>➢ professional faoliyatni amalga oshirishga uchun berilgan litsenziyaning raqami va sanasi: 2020-yil 25-mayda berilgan 1399-sonli;<br>➢ litsenziyaning amal qilish muddati: cheklanmagan;<br>➢ litsenziyani bergan organning nomi: O’zbekiston Respublikasi Kapital bozorlarini rivojlantirish Agentligi; |

| | |
|---|---|
| | ➢ bank va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi o'rtasida tuzilgan shartnomasi sanasi va raqami: 2024-yil 01-mart kungi 2/2024-sonli anderrayting xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma. |
| **20. Mustaqil auditor to'g'risidagi axborot** | Tugallangan 2022 moliya yilida bank moliya hisoboti auditini amalga oshirgan auditorlik tashkilotining to'liq rasmiy nomi:<br>➢ auditorning familiyasi, ismi, sharifi: Abduqodirov Otabek Axmadjanovich;<br>➢ litsenziya raqami va berilgan sana: 2017 yil 28-iyul, 05618-son;<br>➢ auditorlik firmasi nomi: "PricewaterhouseCoopers" MCHJ auditorlik tashkiloti;<br>➢ manzil: Toshkent sh., 100000, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 88A-uy.<br>➢ telefon: (78) 120 61-01;<br>➢ e-mail: otabek.a.abdukodirov@pwc.com.<br><br>Tugallangan 2021 moliya yilida bank moliya hisoboti auditini amalga oshirgan auditorlik tashkilotining to'liq rasmiy nomi:<br>➢ auditorning familiyasi, ismi, sharifi: Abduqodirov Otabek Axmadjanovich;<br>➢ litsenziya raqami va berilgan sana: 2017 yil 28-iyul, 05618-son;<br>➢ auditorlik firmasi nomi: "PricewaterhouseCoopers" MCHJ auditorlik tashkiloti;<br>➢ manzil: Toshkent sh., 100000, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 88A-uy.<br>➢ telefon: (78) 120 61-01;<br>➢ e-mail: otabek.a.abdukodirov@pwc.com.<br><br>Tugallangan 2020 moliya yilida bank moliya hisoboti auditini amalga oshirgan auditorlik tashkilotining to'liq rasmiy nomi:<br>➢ auditorning familiyasi, ismi, sharifi: Azimov Suhrab;<br>➢ litsenziya raqami va berilgan sana: 2015 yil 07-noyabr, 05338-son;<br>➢ auditorlik firmasi nomi: "PricewaterhouseCoopers" MCHJ auditorlik tashkiloti;<br>➢ manzil: Toshkent sh., 100000, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 88A-uy;<br>➢ telefon: (78) 120 61-01. |
| **21. Mazkur chiqarilish bilan bog'liq tegishli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilgan yuridik va moliya masalalari bo'yicha maslahatchilarning to'liq nomi** | Bank tomonidan mazkur chiqarilish bilan bog'liq tegishli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 2024-yil 01-mart kuni 2/2024-sonli "Anderrayter va Investitsiya maslahatchisi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha" shartnomasi tuzilgan. |
| **22. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi tashkilotlar to'g'risida ma'lumot** | Bank obligatsiyalari huquqlari hisobi O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va Investitsiya vositachilari tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda yuritiladi. |

| | |
|---|---|
| | Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi to'g'risidagi ma'lumotlar:<br>➢ to'liq nomi: "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyati;<br>➢ tashkiliy huquqiy shakli: aksiyadorlik jamiyati;<br>➢ joylashgan yeri va pochta manzili: 100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy, 2-qavat;<br>➢ telefon: (71) 267-37-42. e-mail: info@deponet.uz, veb-sayti: www.deponet.uz.<br>➢ shartnoma sanasi va raqami: 06.01.2015-yil,1206/Э-son.<br>➢ Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 21-maydagi 263-sonli qaroriga asosan yuritadi.<br>Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining haqida ma'lumot:<br>➢ to'liq nomi: "HBCapital" mas'uliyati cheklangan jamiyati;<br>➢ tashkiliy huquqiy shakli: mas'uliyati cheklangan jamiyati;<br>➢ joylashgan yeri va pochta manzili: 170119, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 53-uy;<br>➢ telefon: (74) 234-35-39. e-mail: info@hbcapital.uz, veb-sayti: www.hbcapital.uz.<br>➢ shartnoma sanasi va raqami:08.01.2022-yil, 1/2022-son.<br>➢ "HBCapital" MCHJ o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorlarini rivojlantirish Agentligi tomonidan 2020-yil 25-mayda berilgan 1399-sonli litsenziyaga asosan yuritadi. |
| **23. Ro'yxatga olingan obligatsiyalar chiqarilishlari to'g'risidagi ma'lumotlar** | Mazkur obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanaga qadar bankning ro'yxatga olingan obligatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar:<br>➢ obligatsiyalarning umumiy miqdori: 8 000 000 000 (sakkiz milliard) so'm;<br>➢ obligatsiyalarning turi: foizli, korporativ obligatsiya;<br>➢ obligatsiyalarning nominal qiymati: 1 000 (bir ming) so'm;<br>➢ obligatsiyalar chiqarilishining davlat ro'yxatidan o'tgan sana va raqami: 2009-yil 04-sentyabr; raqami: P0838;<br>➢ chiqarish bo'yicha joylashtirilgan obligatsiyalar miqdori: 8 000 000 000 (sakkiz milliard) so'm;<br>➢ obligatsiyalarni joylashtirishda jalb etilgan mablag'larning umumiy miqdori: 8 000 000 000 (sakkiz milliard) so'm;<br>➢ obligatsiya chiqarilishi bo'yicha hisoblangan va to'langan mukofot miqdori: 5 145 606 033,30 (besh milliard bir yuz qirq besh million olti yuz olti ming o'ttiz uch so'm 30 tiyin) so'm;<br>➢ qayta sotib olingan obligatsiyalar miqdori: 8 000 000 000 (sakkiz milliard) so'm; |

| | |
|---|---|
| | ➢ joylashtirilmagan obligatsiyalar foizi: bank tomonidan obligatsiyalar belgilangan muddatlarda to'liq, 100 foiz joylashtirilgan;<br>➢ joylashtirmaganlik sababi: mavjud emas, sababi to'liq joylashtirilgan;<br>➢ bankning obligatsiyalar egalari oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi holatlari bo'yicha ma'lumotlar (obligatsiyalar bo'yicha mukofotlarni to'lamaslik (to'lovning kechiktirilishi), jumladan, bajarilmagan majburiyatlar hajmi va qancha muddatga kechiktirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan, ammo to'lab berilmagan mukofot miqdori (tur va chiqarishlar bo'yicha alohida): bunday holatlar mavjud emas;<br>➢ ma'lum bir obligatsiyalar chiqarilishini joylashtirish yoki muomalaga chiqarish to'xtatilgan (tiklangan) bo'lsa, bunday qarorni qabul qilgan davlat organi, asos va qaror qabul qilingan sana ko'rsatiladi: bunday xolatlari mavjud emas;<br>➢ bankning so'ndirilmagan ayirboshlanadigan obligatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar alohida ko'rsatiladi: bunday xolatlari mavjud emas.<br>Ushbu obligatsiyalar chiqariluvi muomala muddati yakunlanganligi sababli Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining 2016 yil 7 sentyabr kungi 15-07/042-sonli qaroriga asosan to'liq so'ndirilgan. |

**4-bob. Jamiyatning boshqaruv va ijro organlari to'g'risidagi ma'lumot**

**24. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar**

| Kuzatuv kengashi raisi va a'zolarining F.I.Sh. | Kuzatuv kengashi a'zolari saylangan sana va ularning so'nggi 3 yil ichidagi va hozirgi vaqtdagi mehnat faoliyati to'g'risidagi xronologik tartibdagi ma'lumotlar | Kuzatuv kengashi har bir a'zosiga tegishli bankning ustav kapitalidagi ulushi | |
|---|---|---|---|
| | | Aksiya soni donalarda | Ulush foizda (%) |
| Ibragimov Ikram Ibragimovich | Kuzatuv kengashi raisi. Saylangan sana: 28.06.2022y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati*:<br>22.12.2008 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Kuzatuv kengashi raisi | 76573856832 | 59,21% |
| Verdiev Vusal | Kuzatuv kengashi a'zosi (mustaqil a'zo). Saylangan sana – 30.08.2022y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>01.01.2009-01.02.2021 yy.: Gruziyadagi FINKA Bankni Ijrochi direktori;<br>2021 yil mart oyidan - h.v.: Rivojlanayotgan bozorlar bo'yicha mustaqil direktor (Evroosiyo, so'nggi paytlarda Afrika mintaqasi), bank va pul-moliya muassasalarida boshqaruv maslahatchisi;<br>2021 yil noyabr oyidan h.v.: Tanzaniyadagi FINKA Mikromoliya Bankida Mustaqil direktor, direktorlar kengashi risk qo'mitasi raisi;<br>30.08.2022–h.v.:"Hamkorbank" ATB Kuzatuv kengashi a'zosi. | 0 | 0 |
| Jo'raev Shokir Jumaevich | Kuzatuv kengashi a'zosi. Saylangan sana – 28.06.2022y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>2012 yildan h.v.: O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi maslahatchisi;<br>20.05.2017-h.v.: "Hamkorbank" ATB Kuzatuv kengashi a'zosi. | 0 | 0 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Toshmurodov Shuhrat Mamatqulovich | Kuzatuv kengashi a'zosi. Saylangan sana – 28.06.2022y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>2018-yil sentabridan h.v.: "Colvir Central Asia" MChJ Bosh direktori;<br>01.02.2019 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Kuzatuv kengashi a'zosi. | 0 | 0 |
| Istomin Ivan Aleksandrovich | Kuzatuv kengashi a'zosi (mustaqil a'zo). Saylangan sana – 26.05.2023y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>01.07.2018 – 01.07.2021 y.: Alfabank Qozog'iston, Olmaota, Qozog'iston chakana biznes bo'yicha boshqaruvchi direktor;<br>2021 yil oktabr oyidan – h.v.: SteadyPay London Buyuk Britaniya, Moliya direktori va asoschilaridan biri;<br>26.05.2023 – h.v.: "Hamkorbank" ATB Kuzatuv kengashi a'zosi. | 0 | 0 |
| Soliyev Nusratilla Lutpullaevich | Kuzatuv kengashi a'zosi. Saylangan sana – 28.06.2022y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>2011 yil sentyabr oyidan h.v.: PSC MChJ FAIR TAX Bosh direktori;<br>04.10.2018 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Kengashi kengashi a'zosi. | 0 | 0 |
| Qosimov Mavlon Abdullahashimovich | Kuzatuv kengashi a'zosi. Saylangan sana – 28.06.2022y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>2020-yil yanvardan 2020-yil dekabrgacha: O'zbekiston Respublikasi Xalq banki Boshqaruvi raisi maslahatchisi;<br>2020-yil dekabrdan 2021-yil yanvarigacha: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi maslahatchisi;<br>2021 y. yanvaridan – h.v.: "Hamkorbank" ATB Kengashi kengashi a'zosi. | 0 | 0 |
| Qodirov Nazirjon Abduraxmanovich | Kuzatuv kengashi a'zosi. Saylangan sana – 28.06.2022y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>04.05.2020 - 14.07.2021 yy.: "Hamkorbank" ATB kengashi korporativ boshqaruv apparati kengash raisi maslaxatchisi;<br>15.07.2021 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Kengashi kengashi a'zosi. | 0 | 0 |
| Elashvili Irakli Davidovich | Kuzatuv kengashi a'zosi (mustaqil a'zo). Saylangan sana – 28.06.2022y;<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>2020-2021 yy.: Litsenziyalangan xalqaro bank, kichik va o'rta biznesga yo'naltirilgan FINKA Bank Gruziyani Bosh direktori;<br>28.06.2022 – h.v.: "Hamkorbank" ATB Kengashi kengashi a'zosi. | 0 | 0 |

**25. Jamiyat kuzatuv kengashi qo'mitalari to'g'risidagi axborot**

| № | Nomi | Vazifa va funksiyalari | Tarkibi |
|---|---|---|---|
| 1 | Strategik rivojlantirish va korporativ boshqaruv qo'mitasi | Bank Kengashining Strategik rivojlantirish va korporativ boshqaruv qo'mitasi bankning umumiy strategik rivojlanish va korporativ boshqaruv masalalari bo'yicha vazifalar ijrosini nazorat qiladi.<br>Qo'mitaning quyidagi asosiy funksiyalari mavjud:<br>- bank Kengashiga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etilgan bankning rivojlantirish strategik reja loyihasini ishlab chiqishni tashkil etish;<br>- bank faoliyati yuzasidan tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va hisobot davri uchun biznes-rejaning bajarilishini ko'rib chiqish;<br>- strategik rejalar va uzoq muddatli maqsadlarga muvofiq resurslar taqsimotini tahlil qilish; | 1. Toshmurodov Shuhrat Mamatqulovich – Qo'mita raisi;<br>2. Istomin Ivan Aleksandrovich – Qo'mita a'zosi;<br>3. Elashvili Irakli Davidovich – Qo'mita a'zosi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | - Boshqaruvning moliyaviy hisobotini ko‘rib chiqish hamda Bank Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etish;<br>- zarurat tug'ilganda strategik reja va uzoq muddatli maqsadlarni qayta ko'rib chiqish;<br>- korporativ boshqaruvning ilg‘or tajribalari va ishbilarmonlik etikasi talablariga rioya etilishini ta’minlash;<br>- bankning korporativ boshqaruv sohasida siyosat va tartiblari loyihalarini ishlab chiqishda, shu jumladan ESC tizimini ilgari surishda ko‘maklashish. | |
| 2 | Audit qo’mitasi | Bank Kengashining Audit qo'mita bank faoliyatining asosiy moliya-xo'jalik faoliyati va qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash vazifasini amalga oshiradi.<br>Qo‘mitaning quyidagi asosiy funksiyalari mavjud:<br>- milliy va xalqaro standartlarga muvofiq bankning yillik va yarim yillik buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni, shu jumladan moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarni (shu jumladan ESG hisobotini) ishonchliligi, shaffofligi va to'liqligini monitoring qilish;<br>- bankning ichki audit va korporativ boshqaruv funktsiyalarining ishonchliligi va samaradorligini ta'minlash;<br>- tashqi auditor faoliyati bilan bog'liq, shu jumladan auditor ishining sifatini baholash va mustaqillikni ta'minlash masalalarini nazorat qilish;<br>- bankning ichki audit xizmati faoliyatini nazorat qilish va baholash, ularning Kengash va Bank Boshqaruvi o‘rtasidagi aloqalar samaradorligini monitoring qilish. | 1. Elashvili Irakli Davidovich – Qo’mita raisi;<br>2. Soliyev Nusratilla Lutpullaevich – Qo’mita a’zosi;<br>3. Qosimov Mavlon Abdullahashimovich – Qo’mita a’zosi |
| 3 | Risk va komplayens nazorati qo'mitasi | Bankning Risk va komplayens nazorati qo'mitasi bank Kengashining vakolatiga kiruvchi risklarni boshqarish va ularning nazoratga olish vazifalarini amalga oshiradi.<br>Qo‘mitaning quyidagi asosiy funksiyalari mavjud:<br>- bankning risk va komplayens masalalari bo‘yicha ko’rsatmalar berish;<br>- bank Kengashi nomidan umumiy nazoratni amalga oshirish;<br>- risklarni boshqarish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish. | 1. Jo’raev Shokir Jumaevich – Qo’mita raisi;<br>2. Qosimov Mavlon Abdullahashimovich – Qo’mita a’zosi;<br>3. Verdiev Vusal – Qo’mita a’zosi. |
| 4 | Tanlov va rag’batlantirish qo’mitasi | Bankning Tanlov va rag’batlantirish qo’mitasi bank kadrlar siyosati va motivatsiya tizimi sohasidagi muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar berish vazifasini amalga oshiradi.<br>Qo‘mitaning quyidagi asosiy funksiyalari mavjud:<br>- bankning samarali kadrlar siyosatini ta'minlash;<br>- bankni boshqarish uchun malakali mutaxassislarni jalb qilish, ularning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur rag'batlantirish tizimini yaratish;<br>- bank Kengashiga kadrlar strategiyasi, lavozimga tayinlash va mehnatga haq to‘lash, korporativ boshqaruv va ijtimoiy siyosat masalalari bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash (ishlab chiqish). | 1. Verdiev Vusal - Qo’mita raisi;<br>2. Qodirov Nazirjon Abduraxmanovich – Qo’mita a’zosi;<br>3. Soliyev Nusratilla Lutpullaevich – Qo’mita a’zosi. |

| 26. Jamiyatning kollegial (yakka) ijroiya organi to'g'risida ma'lumotlar | | |
|---|---|---|
| Bank Boshqaruvi raisi va a'zolari F.I.Sh. | Bank Boshqaruvi raisi va a'zolari saylangan sana, so'nggi 3 yil ichidagi va hozirgi vaqtdagi mehnat faoliyati to'g'risidagi xronologik tartibdagi ma'lumotlar | Bank Boshqaruvi raisi va a'zolariga tegishli Bankningning ovoz beruvchi aksiyalarining jamiyat ustav kapitalidagi ovoz beruvchi aksiyalarning umumiy hajmiga foiz nisbati |
| Jo'rayev Baxtiyorjon Tuymuratovich | Boshqaruv raisi. Tayinlangan sana – 28.11.2023 y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>03.02.2020 - 01.10.2020 yy.: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi o'rinbosari vazifasini bajaruvchisi;<br>02.10.2020 - 14.04.2021 yy.: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi o'rinbosari;<br>15.04.2021 - 13.07.2021 yy.: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchisi;<br>14.07.2021 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi. | 0 |
| Raxmanov Abdunosir Sodiqovich | Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari. Tayinlangan sana – 28.11.2023 y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>02.08.2019 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi o'rinbosari | 0 |
| Muxitdinov Sherzodbek Zaxritdinovich | Boshqaruv raisining o'rinbosari. Tayinlangan sana – 28.11.2023 y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>01.07.2020 - 09.08.2021 yy.: "Hamkorbank" ATB Moliya-tahlil xizmati boshlig'i-boshqaruv raisi o'rinbosari;<br>10.08.2021 - 17.10.2021 yy.: "Hamkorbank" ATB Rahbariyat Boshqaruv raisi o'rinbosari-Moliya departamenti direktori;<br>18.10.2021 - 08.09.2022 yy.: "Hamkorbank" ATB Moliya departamenti direktori;<br>09.09.2022 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi o'rinbosari | 0 |
| Shamsiddinov Saidjon Shamsiddinovich | Boshqaruv raisining o'rinbosari. Tayinlangan sana – 28.11.2023 y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>14.02.2020 - 05.09.2021 yy.: "Hamkorbank" ATB Kreditlash va anderrayting departamenti direktori;<br>06.09.2021 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Rahbariyat Boshqaruvi raisi o'rinbosari. | 0 |
| Arslanov Muxitdin Sunitdinovich | Boshqaruv raisining o'rinbosari. Tayinlangan sana – 28.11.2023 y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>25.05.2018 - 31.10.2021 yy.: "Hamkorbank" ATB Ichki audit xizmati boshlig'i;<br>01.11.2021 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi o'rinbosari. | 0 |
| Muxtarov Alisher Kosimovich | Boshqaruv a'zosi. Tayinlangan sana – 28.11.2023 y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>04.01.2013 - 31.07.2022 yy.: " Hamkorbank" ATB Buxoro filiali boshqaruvchisi;<br>09.09.2022 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Boshqaruvi raisi o'rinbosari | 0 |
| Solijanov Ilhamjon Adhamovich | Boshqaruv a'zosi. Tayinlangan sana – 28.11.2023 y.<br>*Oxirgi 3 yildagi mehnat faoliyati:*<br>02.10.2018 - h.v.: "Hamkorbank" ATB Yuridik xizmati boshlig'i | 0 |

<table>
<tr><td>27. Jamiyat ijroiya organining vazifasi topshirilgan tashkilot to’g’risidagi ma’lumot</td><td>Mazkur emissiya risolasi tasdiqlangunga qadar, bank ijroiya organining vazifasi boshqa tashkilotga topshirilmagan.</td></tr>
<tr><td>28. Mukofot hamda ish haqining umumiy miqdori, shuningdek, so’nggi 3 yil uchun mazkur Risolaning 24, 26 va 27-bandlarida ko’rsatilgan jamiyatning shaxslariga berilgan va to’langan imtiyozlar</td><td>Bank tomonidan 3 yil ichida quyidagi shaxslarga berilgan ish haqqi umumiy miqdori va to’langan imtiyozlar:<br>(ming. so‘mda)
<table>
<tr><th>Mazmuni</th><th>2021-yil bo’yicha</th><th>2022-yil bo’yicha</th><th>2023-yil bo’yicha</th></tr>
<tr><td>Bank kuzatuv kengash a’zolariga jami to’langan ish haqqi va imtiyozlar miqdori</td><td>1 931 821</td><td>1 993 837</td><td>2 326 092</td></tr>
<tr><td>Bank ijroiya organiga jami to’langan ish haqqi va imtiyozlar miqdori</td><td>2 889 897</td><td>4 787 268</td><td>7 176 122</td></tr>
<tr><td>Bank ijroiya organining vazifasi topshirilgan tashkilotga to’langan ish haqqi va imtiyozlar miqdori</td><td>-</td><td>-</td><td>-</td></tr>
<tr><td>Jami:</td><td>4 821 718</td><td>6 781 105</td><td>9 502 214</td></tr>
</table></td></tr>
<tr><td>29. Jamiyatning 5 va undan ortiq foiz aksiyalari (ulushi)ga ega bo’lgan aksiyadorlari (ishtirokchilari)</td><td>Bankning 5 va undan ortiq foiziga ega aksiyadorlar quyidagilar hisoblanadi:<br>1. Ibragimov Ikram Ibragimovich:<br>➢ soliq to’lovchining individual raqami: 403011874;<br>➢ aksiyadorning ustav kapitalida ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana: 30.09.1991;<br>➢ aksiyadorning bank ustav kapitalidagi ulushi umumiy hajmiga foiz nisbatida: 59,21%<br>2. Nederlandse Financierings-Maatschappij Voor Ontwikkelingslanden N.V.:<br>➢ soliq to’lovchining individual raqami: NL0023. 03.905;<br>➢ aksiyadorning ustav kapitalida ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana: 19.09.2014<br>➢ aksiyadorning bank ustav kapitalidagi ulushi umumiy hajmiga foiz nisbatida: 14,55%.<br>3. ResponsAbility Participations Aktiengesellschaft:<br>➢ soliq to’lovchining individual raqami: CHE-110.061.297;<br>➢ aksiyadorning ustav kapitalida ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana: 02.11.2018<br>➢ aksiyadorning bank ustav kapitalidagi ulushi umumiy hajmiga foiz nisbatida: 10,53%.<br>4. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC):<br>➢ soliq to’lovchining individual raqami: F-000000834608;<br>➢ aksiyadorning ustav kapitalida ishtirok etish ulushiga egalik qilishni boshlagan sana: 19.04.2010<br>➢ aksiyadorning bank ustav kapitalidagi ulushi umumiy hajmiga foiz nisbatida: 7,28%.</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| **30. Jamiyatning boshqa affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlar** | 1. Ibragimov Ikram Ibragimovich - Bank Kuzatuv kengashi raisi / Bank ustav kapitalining yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi shaxs (asos sodir etilgan sana: 28.06.2022-yil);<br>2. Vusal Verdiev – Bank Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 30.08.2022-yil);<br>3. Jo'raev Shokir Jumaevich – Bank Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 28.06.2022);<br>4. Toshmurodov Shuhrat Mamatqulovich – Bank Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 28.06.2022);<br>5. Ivan Istomin – Bank Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 26.05.2023);<br>6. Soliyev Nusratilla Lutpullaevich – Bank Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 28.06.2022);<br>7. Qosimov Mavlon Abdullahashimovich – Bank Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 28.06.2022);<br>8. Qodirov Nazirjon Abduraxmanovich – Bank Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 28.06.2022);<br>9. Elashvili Irakli Davidovich – Bank Kuzatuv kengashi a'zosi (asos sodir etilgan sana: 28.06.2022);<br>10. "HAMKOR MAZ LIZING" MCHJ – ustav kapitalining yigirma foiz va undan ortiq foiz ulushiga egalik qiladi (asos sodir etilgan sana: 26.09.2008);<br>11. "Hamkor Invest Lizing" MCHJ – ustav kapitalining yigirma foiz va undan ortiq foiz ulushiga egalik qiladi (asos sodir etilgan sana: 16.11.2011);<br>12. "Partner Business Leasing" MCHJ - ustav kapitalining yigirma foiz va undan ortiq foiz ulushiga egalik qiladi (asos sodir etilgan sana: 10.01.2014);<br>13. "Hamkor Sug'urta" AJ – ustav kapitalining yigirma foiz va undan ortiq foiz ulushiga egalik qiladi (asos sodir etilgan sana: 05.10.2009);<br>14. "HBCapital" MCHJ – ustav kapitalining yigirma foiz va undan ortiq foiz ulushiga egalik qiladi (asos sodir etilgan sana: 06.08.2007);<br>15. Jo'rayev Baxtiyorjon Tuymuratovich – Boshqaruv raisi (asos sodir etilgan sana: 28.11.2023);<br>16. Raxmanov Abdunosir Sodiqovich – Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari (asos sodir etilgan sana: 28.11.2023);<br>17. Muxitdinov Sherzodbek Zaxritdinovich – Boshqaruv raisining o'rinbosari (asos sodir etilgan sana: 28.11.2023);<br>18. Shamsiddinov Saidjon Shamsiddinovich - Boshqaruv raisining o'rinbosari (asos sodir etilgan sana: 28.11.2023);<br>19. Arslanov Muxitdin Sunitdinovich - Boshqaruv raisining o'rinbosari (asos sodir etilgan sana: 28.11.2023);<br>20. Muxtarov Alisher Kosimovich – Boshqaruv raisining o'rinbosari (asos sodir etilgan sana: 28.11.2023);<br>21. Solijanov Ilhamjon Adhamovich – Boshqaruv a'zosi (asos sodir etilgan sana: 28.11.2023). |

| 5-bob. Jamiyatining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ko’rsatkichlari | |
|---|---|
| **31. Jamiyat faoliyati turlari** | Bank O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2021-yil 25-dekabrda 64-sonli Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga asosan faoliyat ko’rsatadi. Bankning asosiy faoliyat turi bank xizmatlarini ko’rsatishdan iborat. O’z faoliyat maqsadiga erishish uchun bank quyidagi xizmatlarni amalga oshiradi:<br>- pul mablag‘larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;<br>- to‘lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;<br>- jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;<br>- kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o‘z nomidan o‘zining mablag‘lari hamda jalb etilgan mablag‘lar hisobidan berish;<br>- chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operasiyalar;<br>- jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha mol-mulkni ishonchli boshqarish;<br>- inkassasiya va kassa xizmatlarini ko‘rsatish;<br>- uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;<br>- uchinchi shaxslardan pul shaklidagi majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);<br>- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operasiyalarni bajarish;<br>- affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas‘ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo‘lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;<br>- qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;<br>- hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operasiyalarni amalga oshirish;<br>- hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;<br>- lizing berish;<br>- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;<br>- moliyaviy operasiyalar bilan bog‘liq maslahat xizmatlari ko‘rsatish;<br>- aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;<br>- elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to‘lash;<br>- bank kartalarini berish va to‘lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko‘rsatish.<br>Bank banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa moliyaviy operasiyalarni ham amalga oshiradi. |

<table>
<tr><td>32. Jamiyatning bozordagi ulushi to’g’risidagi ma’lumot</td><td>Bank O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil 01-yanvar kungi Respublikadagi mavjud banklar jamlanma statistik ma’lumotiga muvofiq, bozorda quyidagi ulushlarga ega:<br>- jami aktivlar bo’yicha: bankning jami aktivlari 20 980 mlrd. so’m bo’lib, Respublikadagi mavjud banklarning umumiy aktiv summasiga nisbatan 3,2 foiz ulushiga ega;<br>- jami kredit qo’yilmalari qoldig’i bo’yicha: bankning jami kredit qo’yilmalari qoldig’i 15 854 mlrd. so’m bo’lib, Respublikadagi mavjud banklarining umumiy kredit qo’yilmalari summasiga nisbatan 3,4 foiz ulushiga ega;<br>- jami xususiy kapitali bo’yicha: bankning jami xususiy kapitali 3 758 mlrd. so’m bo’lib, Respublikadagi mavjud banklarining umumiy kapital summasiga nisbatan 3,9 foiz ulushiga ega;<br>- jami sof foyda bo’yicha: bankning jami sof foydasi 1 200 mlrd. so’m bo’lib, Respublikadagi mavjud banklarining umumiy sof foydasi summasiga nisbatan 9,69 foiz ulushiga ega.</td></tr>
<tr><td>33. Sohaning kelajakdagi taraqqiyoti borasidagi prognozlar va ushbu sohadagi jamiyatning o’rni</td><td>Bank O’zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o’zining bank xizmati ofislari orqali bank faoliyatini yuritib kelmoqda.<br>Bank mazkur hududlar bo’yicha faoliyat yuritib kelayotgan tijorat banklari ichida yetakchilardan biri hisoblanadi.<br>Kelajakda bank qimmatli qog’ozlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish va bankning qo’shimcha bank xizmati ofislari hamda vakolatxonalarini ochishni rejalashtirilgan.<br>(mlrd. so‘m hisobida)
<table>
<tr><th>Ko’rsatkichlar</th><th>2023-yil yakunida (fakt)</th><th>2024-yil yakunida (prognoz)</th></tr>
<tr><td>Aktivlar</td><td>20 979</td><td>27 000</td></tr>
<tr><td>Kredit qo’yilmalari</td><td>15 854</td><td>22 254</td></tr>
<tr><td>Kapital</td><td>3 757</td><td>5 452</td></tr>
<tr><td>Sof foyda</td><td>1 200</td><td>1 350</td></tr>
</table></td></tr>
<tr><td>34. So‘nggi 3 yil ichida yoki jamiyatning rasmiy faoliyati davrida sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ish, xizmatlar) hajmi</td><td>Bank tomonidan so’ngi 3 yil ichida bank faoliyatida ajratilgan jami kreditlar hajmi quyidagicha:<br>➢ 2021-yil yakuni bo’yicha 9 334 mlrd. so’m, shundan:<br>- jismoniy shaxslarga: 2 724 mlrd.so’m;<br>- yuridik shaxslarga: 6 610 mlrd.so’m.<br>➢ 2022-yil yakuni bo’yicha 11 423 mlrd. so’m, shundan:<br>- jismoniy shaxslarga: 3 883 mlrd.so’m;<br>- yuridik shaxslarga: 7 541 mlrd.so’m.<br>➢ 2023-yil yakuni bo’yicha 15 854 mlrd. so’m, shundan:<br>- jismoniy shaxslarga: 6 935 mlrd.so’m;<br>- yuridik shaxslarga: 8 919 mlrd.so’m.</td></tr>
<tr><td>35. Jamiyatning o’z mahsulotlari (ishlari, xizmatlari)ni sotishni tashkil etish bo’yicha faoliyati</td><td>Bankning asosiy faoliyati bank xizmatlar ko’rsatishdan iborat. Bank faoliyatining asosiy resursi bo’lib, aksiyadorlar tomonidan to’langan pul mablag’lari va jalb qilingan qarz mablag’lardan tashkil topgan.</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | Bank kredit mahsulotlarining foydalanuvchilari jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi. Kredit olgan mijozlar o'rtasida bank kredit qo'yilmasining 10 foiz va undan ortiq qismini tashkil etuvchi ulushga ega qarzdorlar mavjud emas. |
| **36. Jamiyat faoliyatiga ta'sir qiladigan omillar** | |
| **a) jamiyat faoliyati asosiy turlari bo'yicha savdo (ish, xizmat) daromadliligiga ijobiy va salbiy ta'sir qiladigan omillar** | Bank faoliyatining daromadliliga quyidagi ijobiy va salbiy omillar ta'sir ko'rsatadi:<br>- **ijobiy omillar**: Bankni rivojlanishi uchun ta'sir qiladigan asosiy ijobiy omillardan biri bu yurtimizda oxirgi 5 yil davomida olib borilayotgan islohotlar natijasida vujudga kelgan iqtisodiy va siyosiy barqarorliqdir. Bank tomonidan berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi, bankga qo'shimcha resurs va investorlar bazasining jalb qilinishi, bank kredit resurslariga aholi ehtiyojining ortishi va boshqa ijobiy ta'sirlar.<br>- **salbiy omillar**: Bank tomonidan berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi ehtimoli, bank resurs bazasi yetishmasligi va aholining kreditga bo'lgan talabini pasayishi, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, karantin cheklovlari, qamal va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga keladigan vaziyatlar va boshqa salbiy ta'sirlar.<br>Hozirgi kunda banklarni rivojlanishi uchun to'siq bo'layotgan asosiy salbiy omillardan biri bu resurs yetishmovchiligi bo'lsa, ikkkinchi omil Respublikamiz bozorida mavjud resurslarning qimmatligi va tashqi resurslar bozoridan resurs mablag'larni jalb qilinishi juda kamligidir. |
| **b) jamiyatning sud jarayonlaridagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar** | Bankning javobgar va da'vogar sifatida ishtirok etayotgan sud jarayonlari mavjud emas. |
| **v) vakolatli davlat organlari va (yoki) sud tomonidan so'nggi 3 yil davomida jamiyatga va uning boshqaruv organi a'zolariga nisbatan qo'llangan barcha ma'muriy jazolar (sanksiyalar, jumladan moliyaviy) to'g'risidagi ma'lumotlar** | So'ngi uch yil davomida vakolatli davlat organlari va (yoki) sud tomonidan bankga va uning boshqaruv organi a'zolariga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llanilmagan. |
| **g) Tavakkalchilik omillari** | |
| **Jamiyat faoliyati bilan bog'liq xavf-xatarlar** | Bank o'z faoliyati davomida, har qanday tijorat yurituvchi yuridik shaxs sifatida, turli xil xavf-xatar, tavakkalchilik omillari bilan to'qnash keladi va bankning muvaffaqiyati bu qiyinchiliklarni qanday yengib o'tishi bilan o'lchanadi.<br>Bankning ko'p yillik tajribasi asosida yaratilgan ishlash tizimi ko'p xavf-xatarlarni paydo bo'lmasidan oldinroq bartaraf qilishni ta'minlaydi. |
| **Ma'lum turdagi faoliyatni yuritish uchun yoki muomalasi cheklangan obyektlar (jumladan, tabiiy resurslar)dan foydalanish uchun litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish imkoniyatining yo'qligi** | Bank Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida faoliyat yuritadi. Markaziy bank har oyda bankning iqtisodiy normativ-ko'rsatkichlarini nazorat qilib boradi. Agar bank tomonidan ushbu iqtisodiy normativ-ko'rsatkichlari buzgan taqdirda mazkur litsenziyani chaqirib olishi mumkin. |

| | |
|---|---|
| | Bank faoliyatida muomalasi cheklangan obyektlar (jumladan, tabiiy resurslar)dan foydalanish ko'zda tutilmagan va bu bo'yicha qo'shimcha litsenziyaga ega emas. |
| **Uchinchi shaxslar, jumladan, jamiyatning sho'ba tashkilotlari bo'yicha jamiyat javobgarligi** | Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan paytda bankning shu'ba tashkilotlari bo'yicha javobgarligi hamda uchinchi shaxslar bo'yicha majburiyatlari mavjud emas. |
| **Savdo hajmi mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan olinadigan jami daromadning kamida 10 (o'n) foiziga to'g'ri keladigan iste'molchilarni yo'qotish ehtimoli)** | Bunday ehtimol mavjud emas, chunki bankning asosiy mijozlari – kredit oluvchilari bo'lib, ularga ajratiladigan kreditlar garov (ta'minlangan) asosida beriladi. Shu sababli bankda mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan olinadigan jami daromadning kamida 10 (o'n) foiziga to'g'ri keladigan iste'molchilarni yo'qotish ehtimollari mavjud emas. |
| **Tarmoq xavf-xatarlari** | Bankning asosiy faoliyati bank xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lib, quyidagilar tarmoq xavf-xatari deb ko'rsatiladi:<br>- bankning O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun normalariga roiya qilmasligi;<br>- bankning aksiyadorlari kiritgan ulushi va boshqa jalb qilingan mablag'lar hisobi kamayishi;<br>- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan bank ustav kapitali va prudensial normativlariga amal qilmasligi. |
| **Jamiyat o'z faoliyatida foydalanadigan xomashyo, xizmatlar (ichki va tashqi bozorda alohida) narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar alohida bayon qilinadi** | Bankning asosiy xom-ashyosi - moliyaviy resurslardir (pul). Xom-ashyo bilan bog'liq eng katta xavf - tijorat banklardagi kredit resurslarning taqchilliga va ularning foiz to'lovlari yuqoriligi. Bu xavf-xatar bankning qisqa muddatli xatari bo'lib, uzoq muddatda bankning faoliyatiga katta ta'sir qilmaydi.<br>Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar natijasida bank oldida korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarish imkoniyati, mahalliy va xorijiy investorlardan resurs jalb qilish imkoniyatlarini ochib bermoqda. |
| **Jamiyat mahsulotlari va (yoki) xizmatlari narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar (ichki va tashqi bozorda alohida), va ularning jamiyat faoliyatiga bo'lgan ta'siri alohida bayon qilinadi)** | Bank mahsulotlari va (yoki) xizmatlari narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar minimal bo'lib, bank faoliyatiga deyarli ta'sir qilmaydi. Chunki, foiz stavkalari, olinadigan marja va foydalar bozordagi narxlarning o'zgarishiga bog'liq emas.<br>Har bir ajratiladigan kreditlar uchun alohida shartnoma tuzilib, unda o'sha kunda amalda bo'lgan stavkalar va shartlar qo'llaniladi va bu shartlar ikki tomon o'rtasida shartnoma shartlari to'la bajarilgunga qadar o'zgarmaydi. |
| **Moliyaviy xavf-xatarlar** | Bank moliyaviy xavf-xatarlari sirasiga bank o'z majburiyatlarini qoplay olmasligi, kreditor va aksiyadorlar oldidagi majburiyatlarining ortishi, moliyaviy barqarorligi to'g'risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi, mijozlar soninng kamayishi, ko'rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida, bankda zararlar yuzaga kelishidan iborat. |
| **Jamiyat moliya aktivlari va moliya majburiyatlari nomuvofiqligi (jumladan, jamiyatning bir yoki bir necha** | Bankning moliyaviy xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida, bank maksimal darajada uzoq muddatli resurslar jalb qilishga harakat qiladi hamda har qanday |

| | |
|---|---|
| **kontragentlari moliya majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmasligi oqibatida) va (yoki) kutilmaganda jamiyat moliya majburiyatlarini zudlik bilan bir vaqtning o‘zida amalga oshirish zarurati yuzaga kelishi oqibatida jamiyat o‘z majburiyatlarini to‘la bajara olmasligi bilan bog‘liq xatarlar alohida bayon qilinadi** | qisqa muddatli majburiyatlarni birinchi imkoniyat paydo bo‘lishi bilan so‘ndiradi.<br>Uzoq muddatli resurslar jalb qilish:<br>➢ tushum va harajatlarni oldindan rejalashtirishni;<br>➢ mavsumli tushumning o‘zgarishlarini rejalashtirishni ta’minlaydi;<br>➢ har qanday kutilmagan bank moliya majburiyatlarini zudlik bilan bir vaqtning o‘zida amalga oshirish zarurati yuzaga kelishini oldini oladi.<br>Albatta, bir yoki bir necha kontragentlar moliya majburiyatlarini o’z vaqtida bajarmasligi oqibatida bank o’z majburiyatlarini bajarishida kechikishi mumkin, lekin bankning joriy aktivlari har qanday majburiyatlarni to’la bajara olmasligi bilan bog’liq xavf-xatarlarni (defolt) oldini oladi. |
| **Huquqiy xavf-xatarlar** | Bank huquqiy xavf-xatarlari — bank tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar va tuzilgan shartnomalarga rioya qilinmasligi, ish jarayonida huquqiy xatoliklarga (noto’g’ri yuridik maslahat yoki hujjatlarni noto’g’ri tuzilishi) yo’l qo‘yilishi, huquq tizimidagi kamchiliklari, hamkorlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo’qotish bilan bog’liq xavf-xatarlar. |
| **Operatsion xavf-xatarlar** | Bank operatsion xavf-xatarlari quyidagilar hisoblanadi:<br>- bank manfaatiga qarshi qaratilgan tasodifiy yoki qasddan qilingan harakatlar, shu jumladan bankning qonun talablariga va ichki me’yoriy talablariga rioya qilmasligi;<br>- bank tashkiliy tuzilmasi nomukamalligi, shuningdek bank bo’limlari va xodimlarining vazifalarini to’g’ri taqsimlanmasligi;<br>- bankning ichki tizimlari, jarayonlari, axborot texnologiyalari, xodimlar harakatlarida yo’l qo’yilgan xatoliklar yoki tashqi tabiiy jarayonlar, shu jumladan tabiiy ofatlar, natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo’qotish bilan bog’liq xatarlar. |
| **Jamiyat qimmatli qog’ozlarini xarid qilish haqida qaror qabul qilish uchun muhim deb bilgan boshqa xavf-xatarlar** | Biznesda obro’-e’tiborni yo’qotish xavf-xatari: bankning moliyaviy barqarorligi to’g’risida omma ichida salbiy tasavvur yuzaga kelishi sababli, mijozlar sonining kamayishi, ko’rsatilayotgan xizmat sifatining tushishi natijasida bankda zararlar yuzaga kelishi xatari.<br>Firibgarlik xavf-xatari: bankda xodimlar, mijozlar va boshqa hamkorlarning firibgarlik yoki boshqa jinoiy hatti-xarakatlari oqibatida moliyaviy zararlar ko’rish xatari. |
| **37. Xatarlarni boshqarishda jamiyat siyosati to‘g‘risidagi ma’lumotlar** | Xatarlarni boshqarishda bank siyosatida, berilayotgan kreditlarni quyidagi mezonlariga asosan boshqariladi:<br>- berilayotgan kreditlar muddatlari bo’yicha;<br>- berilayotgan kreditning maqsadlari bo’yicha;<br>- berilayotgan kreditni qamrab olish maydonlari bo’yicha;<br>- berilayotgan kreditning ta’minoti bo’yicha. |
| **38. Jamiyatning ustav kapitali to’g’risidagi ma’lumotlar** | ➢ ustavga ko’ra ustav kapitali hajmi:<br>646 648 980 000 (olti yuz qirq olti milliard olti yuz qirq sakkiz million to'qqiz yuz sakson ming) so’m; |

| | |
|---|---|
| | ➢ hisob balansi bo'yicha ustav kapitali hajmi: 646 648 980 000 (olti yuz qirq olti milliard olti yuz qirq sakkiz million to'qqiz yuz sakson ming) so'm;<br>➢ ustav kapitalining to'langan qismi miqdori: 646 648 980 000 (olti yuz qirq olti milliard olti yuz qirq sakkiz million to'qqiz yuz sakson ming) so'm. |
| **39. Jamiyatning o'z kapitali to'g'risidagi ma'lumotlar, so'mda** | Bankning jami o'z kapitali qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi haqiqiy miqdori (buxgalteriya balansining ma'lumotlari bo'yicha): 3 971 387 086 000 (uch trillion to'qqiz yuz yetmish bir milliard uch yuz sakson yetti million sakson olti ming) so'mni tashkil qiladi. |
| **40. Zaxira fondi to'g'risidagi ma'lumot** | Zaxira fondining ustav bo'yicha miqdori: ustav kapitalining 15 (o'n besh) foizi.<br>Qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanaga zaxira fondining asl miqdori: 1 459 826 314 ming. so'm, bu ustav kapitalga nisbatan 225,75 foizni tashkil qiladi (buxgalteri balansining ma'lumotlari bo'yicha). |
| **41. Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar** | Bankning so'ngi tugallangan yil davomida 01.01.2024-yil holatiga tuzilgan moliyaviy balans hisoboti bo'yicha quyidagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarga ega:<br>– Aktivlarning rentabellilik koeffitsiyenti – 0,07<br>– Xarajatlarning rentabellilik koeffitsiyenti – 0,30<br>– To'lov qobiliyati yoki qoplash koeffitsiyenti – 2,17<br>– O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik (moliyaviy barqarorlik) koeffitsiyenti – 1,70<br>– Mutlaq likvidlilik (likvidlik) koeffitsiyenti – 1,10 |
| **42. Jamiyatning hisob yuritish siyosati haqidagi ma'lumotlar** | Bankning hisob yuritish siyosati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan "Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi to'g'risida"gi yo'riqnoma (26.11.2021y. 3336-son) va bankning ichki hisob yuritish siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. |

**43. So'nggi 3 tugallangan moliyaviy yil uchun daromaddan foydalanish asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlar**

*(ming. so'm hisobida)*

| Nomlanishi | 2021 yil yakuni bo'yicha | 2022 yil yakuni bo'yicha | 2023 yil yakuni bo'yicha |
|---|---|---|---|
| **Jami daromad** | **3 214 169 461** | **4 842 284 261** | **6 742 585 933** |
| | | | |
| **Jami xarajat** | **2 763 285 228** | **4 106 886 957** | **5 542 417 690** |
| ***shundan:*** | | | |
| Jami foizli xarajatlar | 845 224 274 | 1 113 989 022 | 1 513 268 856 |
| Jami foizsiz xarajatlar | 1 017 004 007 | 1 664 742 107 | 2 253 131 029 |
| Jami operatsion xarajatlar | 589 939 169 | 831 991 289 | 1 102 338 187 |
| Kreditlar va boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar | 203 485 426 | 328 477 200 | 390 578 822 |
| Foyda solig'ini baholash | 107 632 352 | 167 687 339 | 283 100 796 |
| | | | |
| **Sof foyda** | **450 884 233** | **735 397 304** | **1 200 168 243** |
| ***shundan:*** | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Zaxira kapitali | 177 000 000 | 315 000 000 | 500 000 000 |
| Divident to'lovi | 1 010 138 | 1 010 138 | - |
| Taqsimlanmagan foyda | 272 874 095 | 419 387 166 | - |

| | |
|---|---|
| **44. Mazkur Risola tasdiqlangan kungacha so'nggi yil uchun affillangan shaxslar bilan tuzilgan yirik bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar** | Mazkur risola tasdiqlangan kungacha so'nggi yil uchun affillangan shaxslar bilan tuzilgan yirik bitimlar tuzilmagan. |
| **45. Jamiyat aktivlari umumiy hajmining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan aktivlar, har bir aktivning tegishli balans qiymati ko'rsatiladi** | Mazkur risola tasdiqlangan kungacha jamiyat aktivlari umumiy hajmining 10 va undan ortiq foizini tashkil etuvchi aktivlar mavjud emas. |
| **46. Jamiyat aktivlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizi miqdoridagi debitorlik qarzi** | Bank aktivlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizi miqdorida debitorlik qarzi mavjud emas. |
| **47. Jamiyatning asosiy faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq va jamiyat majburiyatlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan kreditorlik qarzi** | Bankning asosiy faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq va bank majburiyatlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan kreditorlik qarzilari mavjud emas. |
| **48. Jamiyat tomonidan asosiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, jamiyat majburiyatlarining balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan kreditorlik qarzi** | Bank tomonidan asosiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, bank majburiyatlarining balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etadigan kreditorlik qarzi mavjud emas. |
| **49. So'ndirilmagan kreditlar (qarzlar) to'g'risidagi ma'lumotlar** | Mazkur risola tasdiqlangan kuniga bankning so'ndirilmagan kreditlari (qarzlar) mavjud emas. |
| **50. Soliq to'lovlari bo'yicha muddati o'tib ketgan qarz miqdori, so'mda** | Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish vaqtida bankda muddati o'tgan soliq qarzlari mavjud emas. |
| **51. Aktivlari balans qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etgan jamiyatning investitsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar** | Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan paytda bank aktivlari balans qiymatining 10 yoki undan ortiq foizini tashkil etuvchi investitsiyalarni amalga oshirmagan. |
| **6-bob. Yakuniy qoidalar** | |
| **52. Mazkur Risola nusxalari va asl nusxasi bilan tanishish tartibi va joyi to'g'risida ma'lumot** | Bankning obligatsiyalar emissiya risolasi nusxalari va asl nusxasi bilan Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi 85-uy manzilida joylashgan bankning ma'muriy binosida, xaftaning ish kunlari soat $9^{00}$ dan $18^{00}$ gacha bo'lgan vaqt davomida tanishish mumkin.<br>Muloqot telefoni: (78) 298-04-33.<br>Elektron pochta manzili: mulogot@hamkorbank.uz.<br>Mazkur obligatsiyalarni chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) oshkor qilinadi. |
| **53. Qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi shartlari joylashtiriladigan axborot-ma'lumot tizimlari, davriy nashrlar manzillari va nomlari** | Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor etilishi shart bo'lgan obligatsiyalar chiqarilishi to'g'risidagi axborot-ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ |

| | |
|---|---|
| | axborot yagona portali (www.openinfo.uz), bankning rasmiy veb-sayti (www.hamkorbank.uz) va “Toshkent” Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz) hamda Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buxoro ko’chasi, 6-uyda manzil bo’yicha joylashgan “Biznes-Daily Media” Nashriyot uyi mas’uliyati cheklangan jamiyatga tegishli Biznes Daily “Birja” gazetasida e’lon qilinadi. |
| **54. Jamiyat qimmatli qog’ozlarini sotib olish to’g’risida qaror qabul qilish uchun jamiyatning fikriga ko’ra oshkor etilishi zarur bo’lgan boshqa ma’lumotlar** | Mazkur risola bandlarida bank to‘g‘risidagi barcha zarur ma’lumotlar oshkor etilgan. |